– kompensatsiyaning huquqiy tabiatiga oid turli nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

– kompensatsiya turlarining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash;

– xalqaro tajribani oʻrganish va qiyosiy tahlil qilish; milliy qonunchilikni takomillashtirish boʻyicha amaliy takliflar berish.

**Metodlar**

Ushbu tadqiqot bir qator oʻzaro bogʻliq metodlardan foydalangan holda amalga oshirildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi yordamida turli huquqiy tizimlar (AQSH, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Qozogʻiston) qonunchiligi va sud amaliyotidagi kompensatsiya institutining tartibga solinishi taqqoslandi.

Nazariy tadqiqot usuli orqali kompensatsiya institutining huquqiy tabiatiga oid nazariy qarashlar, ilmiy konsepsiyalar va yondashuvlar oʻrganildi.

Normativ-huquqiy tahlil metodidan foydalanib, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar toʻgʻrisida”gi Qonun hamda boshqa tegishli qonun hujjatlari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning qonun hujjatlari tahlil qilindi.

Tarixiy-huquqiy metod yordamida kompensatsiya institutining Rim huquqidan zamonaviy davrgacha boʻlgan tarixiy evolyutsiyasi tadqiq etildi.

Funksional tahlil metodi kompensatsiyaning turli (restitutiv, kompensatsion, preventiv) funksiyalari va ularning oʻzaro nisbatini oʻrganish imkonini berdi.

Sud amaliyoti tahlili orqali turli mamlakatlar sudlarining kompensatsiya toʻgʻrisidagi qarorlari oʻrganildi. Tadqiqot jarayonida milliy va xalqaro qonun hujjatlari, ilmiy adabiyotlar, sud qarorlari, xalqaro shartnomalar va statistik maʼlumotlar asosiy manbalar sifatida xizmat qildi.

**Natijalar**

Tadqiqot davomida kompensatsiya institutining huquqiy tabiati va unga oid naza-

riy qarashlar tahlil qilindi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, kompensatsiya institutining huquqiy tabiatini aniqlashda yuzaga kelayotgan nazariy tortishuvlar quyidagi obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi:

*a) terminologik noaniqlik muammosi:* turli huquqiy tizimlarda “kompensatsiya” tushunchasining turlicha talqin qilinishi kontinental huquqda – “dédommagement” (Legiscompare, 2016), “entschädigung” (Hartmann, 2013); anglo-sakson huquqda – “damages”, “compensation” (Goldberg, 2006); oʻzbek huquqshunosligida – rus tilidan koʻchirilgan “компенсация” (Russian Federation, 1994) atamasi bilan milliy “tovon”, “zararni qoplash” (Mamadiev, 2025) tushunchalarining oʻzaro nisbati muammosi;

*b) funksional koʻp qirralik:* kompensatsiya bir vaqtning oʻzida ham restitutiv (Smith, 2003) (tiklovchi), ham kompensatsion (qoplovchi), ham preventiv (Parr, 2018) (oldini oluvchi) funksiyalarni bajarishi va har bir funksiyaga alohida e’tibor berish lozimligi natijasida kompensatsiyaning “asl” tabiatini toʻliq ochib bera olmaslik xavfi bilan bogʻliq.

*Kompensatsiyaning turlari va ularning huquqiy tabiati*

Zamonaviy fuqarolik huquqida kompensatsiya instituti bir necha turga boʻlinadi va har bir tur oʻziga xos huquqiy tabiatga ega. Kompensatsiyaning turlarini ajratish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki har bir tur uchun qoʻllanish shartlari, hisoblash mexanizmlari va sud amaliyotining oʻziga xos xususiyatlari bor.

*Moddiy zarar uchun kompensatsiya*

Moddiy zarar uchun toʻlanadigan kompensatsiya fuqarolik huquqida eng an’anaviy va keng tarqalgan zararni qoplash shakli hisoblanadi. “Zarar deganda huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim boʻlgan xarajatlari, uning mol-mulki yoʻqolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek, bu shaxs oʻz huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin boʻlgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi” (Republic of Uzbekistan, 1995).

Moddiy zarar uchun kompensatsiyaning huquqiy tabiati restitutiv (tiklovchi) xarakterga ega boʻlib, uning asosiy maqsadi jabrlanuvchining mulkiy holatini huquqbuzarlik sodir etilgunga qadar mavjud boʻlgan holatga qaytarishdan iborat. Bu prinsip “restitutio in integrum” (toʻliq tiklanish) tamoyili sifatida kontinental huquq tizimlarida keng tan olingan.

Moddiy zararni qoplashda ikki asosiy komponent ajratiladi:

a) “*damnum emergens* – lotincha atama boʻlib, “kelib chiqadigan zarar” degan ma’noni anglatadi. Bu mulk qiymatining pasayishi yoki boshqa oqibatli zarar kabi allaqachon sodir boʻlgan haqiqiy, amalga oshirilgan yoʻqotishni anglatadi. Bu turdagi yoʻqotish kelajakda kutilgan yoʻqotishlardan, masalan, yoʻqotilgan foydadan farq qiladi” (Legal Studies Database, 2026). Masalan, avtomobil toʻqnashuvida transport vositasining shikastlanishi, yongʻinda mulkning yoʻq boʻlib ketishi va shunga oʻxshash holatlar haqiqiy zararni tashkil etadi.

b) “boy berilgan foyda (*lucrum cessans*) – jabrlanuvchining huquqbuzarlik sodir etilmaganda olishi mumkin boʻlgan, ammo olmagan daromadlari. Boy berilgan foydaning yoʻqotilishi (*lucrum cessans*) odatda kelib chiqadigan zararga (*damnum emergens*) qarama-qarshidir” (Breton, 2021). Boy berilgan foydani aniqlash amaliyotda murakkab masala hisoblanadi, chunki u ehtimoliy daromadni baholashni talab qiladi. Sud amaliyotida bu koʻpincha taraflarning kelishuvlari, biznes-rejalar, bozor tahlillari va boshqa dalillar asosida belgilanadi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida ham shaxsning oʻz huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin boʻlgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan

foyda) (Republic of Uzbekistan, 2000) deb baholanadi.

Moddiy zarar uchun kompensatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u aniq pul mablag'ida ifodalanishi va isbotlanishi kerak. Jabrlanuvchi da'vogar o'zi ko'rgan moddiy zararni hujjatli dalillar bilan tasdiqlab berishi shart. Kompensatsiyaning mazkur turi ma'naviy zarar uchun to'lanadigan kompensatsiyadan tubdan farq qiladi.

*Ma'naviy zarar uchun kompensatsiya*

Ma'naviy zarar deganda jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o'tkazgan) ma'naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og'riq, zarar ko'rish, noqulaylik va boshqa) azoblar tushuniladi (Republic of Uzbekistan, 2000). Bu borada ma'naviy zarar deganda fuqaroga tug'ilganidan yoki qonun asosida tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlarga tajovuz qiluvchi yoki uning shaxsiy nomulkiy huquqlarini (masalan, hayoti, sog'lig'i, shaxsiy qadr-qimmati, erkinligi, shaxsiy daxlsizligi, shaxsiy hayotning maxfiyligi, shaxsiy va oilaviy sirlar, sha'ni va yaxshi nomi, yozishmalar maxfiyligi, telefon orqali suhbatlar, pochta jo'natmalari, telegraf va boshqa aloqalar, uyning daxlsizligi, harakatlanish erkinligi, yashash va yashash joyini tanlash erkinligi, o'z mehnat qobiliyatini erkin tasarruf etish huquqi, faoliyat turi va kasbini tanlash huquqi, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda ishlash huquqi, oilaviy va oilaviy aloqalarni hurmat qilish huquqi, sog'liqni saqlash va tibbiy yordam olish huquqi, o'z ismidan foydalanish huquqi, baholash xulosasini shakllantirishda ifodalangan haqoratlardan himoya qilish huquqi, mualliflik huquqi, muallifning ismga bo'lgan huquqi, intellektual faoliyat natijasi muallifining boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlari va boshqalar) yoki fuqaroning mulkiy huquqlarini buzuvchi harakatlar (harakatsizlik) natijasida kelib chiqadigan ma'naviy yoki jismoniy azob-uqubatlar tushuniladi (Russian Federation, 2022).

Ma'naviy zarar uchun kompensatsiyaning huquqiy tabiati haqida ilmiy adabiyotda turlicha qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar uni to'laqonli kompensatsiya shakli deb hisoblasalar, boshqalar "simvolik to'lov" yoki "satisfaksiya" (qoniqtirish) deb ataydilar. Bu tortishuvlar asosan ma'naviy zararning nomoddiy tabiati va uni aniq pul ekvivalentida ifodalash qiyinligi bilan bog'liq.

P.V. Krasheninnikov (2011) tahriri bilan chiqqan manbada shunday deyilgan: "Ma'naviy zarar haqida gap ketganda, biron-bir mezonni belgilash qiyin. Da'vogarlar nima uchun ma'lum miqdorni, sudlanuvchilar nima uchun boshqa miqdorni belgilaganini isbotlashlari kerak. Va keyin sud o'z qarorini chiqarishi kerak".

"Ma'naviy zararni qoplash jabrlanuvchiga yetkazilgan ma'naviy (ruhiy) yoki jismoniy azob-uqubatlar uchun pul kompensatsiyasi bo'lib, uni nomoddiy tabiati va o'ziga xosligi tufayli tiklab bo'lmaydi, bu esa ma'naviy zararni qoplash miqdorini aniq o'lchash (baholash)ning imkonsizligini ham belgilaydi.

Ma'naviy zararni qoplash fuqarolik javobgarligining kompensatsiya funksiyasini aks ettiradi. Bu funksiya nomoddiy tabiati, noyobligi va eksklyuzivligi tufayli asl holatda tiklab bo'lmaydigan va ularning qiymatini aniqlab bo'lmaydigan buzilgan fuqarolik huquqiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatish vositasidir" (Karmanova, 2014).

Agar fuqaro uning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzadigan yoki fuqaroning nomoddiy aktivlariga tajovuz qiladigan harakatlar natijasida ma'naviy zarar (jismoniy yoki ruhiy azob-uqubatlar) ko'rgan bo'lsa, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda sud huquqbuzarga ushbu zarar uchun pul kompensatsiyasi to'lash majburiyatini yuklashi mumkin.

Ma'naviy zararni qoplash miqdorini belgilashda sud huquqbuzarning aybdorlik darajasini va boshqa tegishli holatlarni hisobga oladi. Sud, shuningdek, zarar ko'rgan fuqaroning individual xususiyatlari bilan bog'liq jismoniy


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

va ruhiy azob-uqubat darajasini ham hisobga olishi kerak (Russian Federation, 1994).

*Intellektual mulk sohasida kompensatsiya*

Intellektual mulk sohasidagi kompensatsiya instituti o'zining maxsus huquqiy tabiati va qo'llanish mexanizmlari bilan ajralib turadi. Bu sohadagi kompensatsiya ma'naviy zararni qoplash mexanizmlaridan tubdan farq qiladi, chunki u nomoddiy obyektlarning huquqiy muhofazasi bilan bog'liq.

Xorijiy tajribani tahlil qiladigan bo'lsak, intellektual mulk sohasida kompensatsiya quyidagi shakllarda qo'llanadi:

*a) miqdori qonunda belgilangan kompensatsiya* – qonun hujjatlarida belgilangan minimal va maksimal miqdorlar doirasida to'lanadigan kompensatsiya. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi (Republic of Uzbekistan, 2021) Qonunining 65-moddasida "... zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovon" nazarda tutilgan;

*b) ikki barobar kompensatsiya* – huquqbuzar tomonidan noqonuniy ishlatilgan tovarlar, materiallar yoki boshqa obyektlar qiymatidan ikki baravar miqdorda to'lanadigan kompensatsiya. Bu borada Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida "asar nusxalari qiymatining ikki baravari miqdorida yoki asardan foydalanish huquqi qiymatining ikki baravari miqdorida, o'xshash holatlarda odatda asardan qonuniy foydalanish uchun undiriladigan narx asosida belgilanadigan kompensatsiya to'lash" (Republic of Kazakhstan, 1996) belgilangan;

*d) huquqbuzarning daromadini qaytarish* huquqbuzar intellektual mulk huquqini noqonuniy ishlatish orqali olgan barcha daromadni huquq egasiga qaytarishni nazarda tutadi.

Ko'pgina ilg'or huquqiy tizimlarda daromadni qaytarish instituti keng qo'llanadi. AQSHda Lanham qonuni huquq egasiga huquqbuzarning foydasini undirish huquqini beradi. Ushbu qonunni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti ham mavjud bo'lib, unda aytilishicha: "Amerika Qo'shma Shtatlari Oliy sudi tomonidan "*Romag Fasteners, Inc. v. Fossil Grp., Inc." ishi* yuzasidan 2020-yil 23-aprelda chiqarilgan muhim qarorda sud bir ovozdan shuni e'tirof etdiki, Lanham qonuni doirasida tovar belgisi egasining huquqbuzardan foydasini undirishi uchun huquqbuzarlikning qasddan sodir etilganini (*willful infringement*) isbotlashi zarur shart emasligini bir ovozdan ma'qulladi va bu bir nechta okrug sudlari o'rtasidagi sezilarli tafovutni hal qildi" (Romag Fasteners, Inc. v. Fossil Grp., Inc., *2020*).

Shu bilan birga, daromadni qaytarish institutining bunday keng qo'llanishi huquqshunoslar orasida bir xil baholanmaydi. Ayrim olimlar ushbu mexanizmni huquqbuzarlikning iqtisodiy rag'batini yo'qotuvchi samarali vosita sifatida e'tirof etsalar, boshqalar esa uni fuqarolik-huquqiy javobgarlik chegaralarini kengaytirib yuborishi, hatto ayrim holatlarda jazolovchi xarakter kasb etishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Aynan mana shu qarama-qarshi yondashuvlar daromadni qaytarish shaklining amaliy ahamiyatini, xususan, huquqbuzar sezilarli foyda ko'rgan, biroq huquq egasining real zarari kam bo'lgan vaziyatlarda yanada dolzarb qilib qo'yadi.

Huquqshunos olim A.G. Karapetov bu borada: "Ushbu shakl, ayniqsa, huquqbuzar katta foyda olgan, ammo huquq egasining haqiqiy zarari nisbatan kam bo'lgan hollarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki asosiy maqsad – huquqbuzarning noqonuniy harakatlaridan foyda ko'rmasligi va kelajakda huquqbuzarliklarning oldini olishdir", – deydi (Karapetov, as cited in Lukyanov, 2024).

*Intellektual mulk sohasida kompensatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari*

birinchidan, bu sohadagi kompensatsiya jabrlanuvchini haqiqiy zararni isbotlash yukidan ozod qiladi. Klassik zararni qoplashdan farqli o'laroq, huquq egasi aniq zarar miqdorini hujjatlar bilan tasdiqlab berishi shart emas;

ikkinchidan, kompensatsiya nafaqat restitutiv, balki kuchli preventiv funksiyani ham bajaradi. Intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun yuqori miqdordagi kompensatsiya belgilash kelajakda huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi;

uchinchidan, bu sohadagi kompensatsiya miqdori oldindan belgilangan me'yorlar asosida aniqlanadi. Bu sud jarayonlarini soddalashtiradi va taraflar uchun huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

**Muhokama**

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari kompensatsiya institutining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur muhokama qilishni talab etadi. Nazariy yondashuvlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kompensatsiyaning huquqiy tabiati toʻgʻrisida mavjud qarashlar xilma-xilligi tasodifiy emas, balki mazkur institutning oʻziga xos murakkabligi bilan bogʻliq.

*Ilmiy tortishuvlarning asosiy sabablari:*

*birinchi sabab, metodologik yondashuvlar farqi* – pozitivistik yoʻnalish tarafdorlari kompensatsiyani faqat qonun hujjatlarida mustahkamlangan normalar orqali tahlil qilsalar, tabiiy huquq maktabi vakillari uni adolat, ekvivalentlik kabi universal tamoyillar nuqtayi nazaridan baholaydilar. Ushbu ikki yondashuv oʻrtasidagi ziddiyat kompensatsiya tabiatiga turlicha ta'riflar berilishiga olib keladi;

*ikkinchi sabab, interdissiplinar xarakter* – kompensatsiya nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy kategoriya hamdir. Iqtisodchilar uni resurslarni samarali taqsimlash mexanizmi sifatida koʻrsalar, huquqshunoslar huquqiy adolatni ta'minlash vositasi sifatida qaraydilar. Bu ikki nuqtayi nazar har doim ham uygʻunlikda boʻlavermaydi;

*uchinchi sabab tarixiy relyativizm* – kompensatsiya instituti turli huquqiy madaniyatlarda har xil yoʻllar bilan rivojlangan. Rim huquqida "compensatio" asosan texnik-hisob mexanizmi boʻlsa, zamonaviy huquqda u keng ijtimoiy-huquqiy funksiyalarni bajaradi. Bu tarixiy transformatsiya olimlar oʻrtasida kompensatsiyaning "asl" mohiyatiga nisbatan turli talqinlar paydo boʻlishiga sabab boʻlgan;

*toʻrtinchi sabab, moddiy va ma'naviy zararning oʻziga xosligi* – ma'naviy zarar uchun toʻlanadigan kompensatsiyani klassik zararni qoplash mexanizmlari toʻliq qamrab ololmaydi, chunki nomoddiy ziyonni aniq pul ekvivalentida ifodalash qiyin. Ba'zi olimlar bunday kompensatsiyani "shartli" yoki "simvolik" deb atashsa, boshqalar uni toʻlaqonli zararni qoplash shakli deb e'tirof etadilar.

Qayd etilganlarga koʻra, fuqarolik huquqi nazariyasida kompensatsiya institutining huquqiy tabiatiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar shakllangan boʻlib, ular asosan kompensatsiyaning vazifasi, maqsadi hamda majburiyatlar tizimidagi oʻrni bilan belgilanadi. Bir guruh olimlar kompensatsiyani majburiyatlarni tugatish vositasi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvga koʻra, kompensatsiya qarshi talablarni oʻzaro hisobga olish orqali taraflar oʻrtasidagi huquqiy munosabatni soddalashtiradi va iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi. Bunda "kompensatsiya/*set-off* – hisob-kitob (*accounting*) xarakteridagi mexanizm boʻlib, majburiyatlarni oʻzaro kamaytiradi yoki tugatadi" (International Institute for the Unification of Private Law, 2004), – deb qaraladi.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa kompensatsiyani delikt majburiyatlar doirasida koʻrib, uni zararni qoplashning huquqiy shakli sifatida baholaydi. Mazkur nuqtayi nazarga koʻra, "...zararni qoplash fuqarolik huquqlarini himoya qilishning universal usuli boʻlib, nafaqat majburiyatlar, balki fuqarolik huquqining boshqa institutlari uchun ham qoʻllanadi" (Bykina, 2011). Bu yondashuvda kompensatsiyaning restavratsion (tiklovchi) funksiyasi ustuvor boʻlib, u jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini qayta tiklashga qaratilgan mexanizm sifatida izohlanadi.

Uchinchi konseptual yondashuv kompensatsiyani fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutining tarkibiy qismi sifatida koʻradi. Bu qarashga koʻra, kompensatsiya nafaqat zararni


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

qoplash vositasi, balki preventiv (oldini oluvchi) funksiyani ham bajaradi. Masalan, Yevropa Ittifoqi huquqida kompensatsiya "raqobat qoidalarining ishlashini kuchaytiradi va raqobatni cheklash yoki buzishga moyil boʻlgan shartnomalar yoki amaliyotlarni toʻxtatadi" (Leczykiewicz, 2017).

Bundan tashqari, kompensatsiya institutining funksional vazifasi ham turlicha izohlanadi: ayrim olimlar uni faqat zarar koʻrgan tomon manfaatlarini tiklashga qaratilgan vosita deb bilsalar, boshqalar unga ijtimoiy tartib-intizomni taʼminlash va kelgusida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraydilar (Mamadiev, 2025).

Boshqa bir olimlarning fikrlariga koʻra kompensatsiyaning huquqiy tabiatini aniqlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Baʼzi huquqshunoslar (Afanasyev & Morozov, 2023) uni maʼnaviy zararni qoplash shakli sifatida koʻrsa, boshqalar (Shmakov & Bulgakova, 2011) uni alohida, mustaqil majburiyat turi sifatida eʼtirof etadi. Masalan, maʼnaviy zarar uchun toʻlanadigan kompensatsiya real iqtisodiy zarar bilan bevosita bogʻliq emas, balki shaxsning shaʼni, qadr-qimmati va boshqa nomoddiy boyliklari buzilgani uchun beriladi. Shu sababli uni klassik "zararni qoplash" institutiga kiritish toʻliq toʻgʻri boʻlmaydi.

Umuman olganda esa bugungi kunda kompensatsiya institutining kompleks tabiatiga urgʻu berish maqsadga muvofiq. Chunki kompensatsiya bir vaqtning oʻzida ham majburiyatlarni hisobga olish mexanizmi, ham zararni qoplash vositasi hamda fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Ushbu yondashuv kompensatsiyani yagona tor doirada emas, balki fuqarolik muomalasining turli sohalarida amal qiluvchi universal huquqiy instrument sifatida baholash lozimligini koʻrsatadi. Shu orqali kompensatsiya instituti fuqarolik huquqining adolat, ekvivalentlik va muvozanat tamoyillarini taʼminlashga xizmat qiluvchi koʻp funksiyali mexanizm sifatida eʼtirof etiladi.

Turli yondashuvlar va olimlarning fikrlaridan shu narsa maʼlumki, ilmiy qarashlarning xilma-xilligi kompensatsiya institutining nafaqat tarixiy, balki funksional va normativ jihatdan ham murakkab huquqiy hodisa ekanini koʻrsatadi. Bu esa mazkur institutni oʻrganishda faqat bitta nazariy yondashuv bilan cheklanib qolmasdan uni fuqarolik huquqi tizimining turli elementlari bilan uzviy bogʻliq holda tahlil qilish zarurligini koʻrsatadi.

**Xulosa**

Kompensatsiya institutining fuqarolik-huquqiy tabiatiga oid oʻtkazilgan ilmiy tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

*Birinchidan,* kompensatsiya instituti zamonaviy fuqarolik huquqida murakkab, koʻp funksiyali huquqiy mexanizm sifatida namoyon boʻladi. Uning huquqiy tabiati bir tomonlama talqin qilinishi mumkin emas, kompensatsiya bir vaqtning oʻzida ham majburiyatlarni tugatish vositasi, ham zararni qoplash mexanizmi, ham fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida amal qiladi.

*Ikkinchidan,* kompensatsiyaning fuqarolik-huquqiy tabiatiga oid ilmiy qarashlar xilma-xilligi obyektiv xarakterga ega boʻlib, u quyidagi omillar bilan belgilanadi: terminologik noaniqlik, funksional koʻp qirralik, metodologik yondashuvlar farqi, interdissiplinar xarakter hamda tarixiy relyativizm. Ushbu omillarning har biri kompensatsiya institutini turli nuqtayi nazardan tahlil qilish zarurligini koʻrsatadi.

*Uchinchidan,* kompensatsiyaning turli shakllari: moddiy zarar uchun kompensatsiya, maʼnaviy zarar uchun kompensatsiya va intellektual mulk sohasidagi kompensatsiya oʻziga xos huquqiy tabiat va qoʻllanish mexanizmlariga ega. Moddiy zarar uchun kompensatsiya restitutiv (tiklovchi) xarakterga ega boʻlsa, maʼnaviy zarar uchun kompensatsiya satisfaksiya (qoniqtirish) funksiyasini bajaradi, intellektual mulk sohasidagi kompensatsiya esa kuchli preventiv taʼsirga ega.

*Toʻrtinchidan,* zamonaviy davr talablari, xususan, intellektual mulk huquqlarining

kengayishi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari kompensatsiya institutini yanada takomillashtirish zaruratini tug'dirmoqda. Bu borada milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, kompensatsiya miqdorlarini belgilashning yagona mezonlarini ishlab chiqish hamda sud amaliyotini umumlashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

*Beshinchidan,* kompensatsiya instituti fuqarolik huquqining fundamental tamoyillari – adolat, ekvivalentlik va muvozanat tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiluvchi universal huquqiy instrument sifatida e'tirof etilishi lozim. Uning samarali qo'llanishi nafaqat individual huquqlarni himoya qilish, balki umumiy huquqiy tartibni mustahkamlash va fuqarolik muomalasining barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Yuqorida bayon etilganlar kompensatsiya institutining nazariy asoslarini chuqurroq o'rganish, uning amaliy qo'llanish mexanizmlarini takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida ushbu institutni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

## REFERENCES

1. Afanasyev, I. V., & Morozov, N. A. (2023). Compensation for moral damage: Theory, problems of law enforcement practice and ways of overcoming them. *Economic Problems and Legal Practice, 19*(3), 75–81.

2. Breton C. (2026). *Damages: Lost Profits.* Just Mundi. https://jusmundi.com/en/document/publication/en-damages-lost-profits

3. Buckland, W. W., & McNair, A. D. (1952). *Roman law and common law: A comparison in outline* (2nd ed., rev. F. H. Lawson). Cambridge University Press.

4. Bykina, M. V. (2011). Problemy vzyskaniya ubytkov v grazhdanskom prave Rossiyskoy Federatsii [Problems of recovery of damages in civil law of the Russian Federation]. *Economic Space*, (1–3). https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-vzyskaniya-ubytkov-v-grazhdanskom-prave-rossiyskoy-federatsii

5. Goldberg, J. C. (2006). Two conceptions of tort damages: Fair v. full compensation. *DePaul Law Review*, *55*(2), 435–468.

6. Hartmann, B. J. (2013). *Öffentliches Haftungsrecht: Ökonomisierung – Europäisierung – Dogmatisierung [Public liability law: Economization – Europeanization – Dogmatization]*. Mohr Siebeck.

7. International Institute for the Unification of Private Law. (2004). *UNIDROIT Principles of International Commercial Contracts*. https://www.unidroit.org/english/documents/2004/study50/s-50-98-e.pdf

8. Karmanova, E. V. (2014). Kompensatsionnaya funktsiya grazhdansko-pravovoy otvetstvennosti v sootnoshenii s kompensatsiey moralnogo vreda [*Compensatory function of civil-law liability relative to compensation for moral harm*]. *Modern Law, (5)*, 73–78.

9. Kaser, M. (1971). *Roman private law*. South African Law Commission.

10. Krasheninnikov, P. V. (Ed.). (2011). *Postateynyy kommentariy k Grazhdanskomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Article-by-article commentary to the Civil Code of the Russian Federation] (part one).* Statut.

11. Leczykiewicz, D. (2017). Compensatory remedies in EU law: The relationship between EU law and national law. In P. Giliker (Ed.), *Research Handbook on EU Tort Law* (Oxford Legal Studies Research Paper No. 18/2017). SSRN. https://ssrn.com/abstract=2931892

12. Legal Studies Database. (2026). *Damnum emergens: Definition and legal application*. https://lsd.law/define/damnum-emergens

13. Legiscompare. (2016). *Damages and indemnity in comparative law* (Chapter 8). Comparative Legislation Society.

14. Lukyanov, R. L. (2024). *Kompensatsiya kak mera grazhdansko-pravovoy otvetstvennosti za narushenie isklyuchitelnogo prava [Compensation as a measure of civil-law liability for infringement of exclusive rights]* (Doctoral dissertation). RGU-P.

15. Mamadiev, A. (2025). Problemy opredeleniya pravovoy prirody ponyatiya kompensatsii v grazhdanskom prave [Problems of determining the legal nature of the concept of compensation in civil law]. *Society and Innovation*, *6*(9), 179–185. https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/7284

16. Parr, R. L. (2018). *Intellectual property: Valuation, exploitation, and infringement damages* (5th ed.). John Wiley & Sons.

17. Republic of Kazakhstan. (1996). *Law of the Republic of Kazakhstan "On Copyright and Related Rights", Art. 49.*

18. Republic of Uzbekistan. (1995). *Civil Code of the Republic of Uzbekistan.* https://lex.uz/docs/-111189

19. Republic of Uzbekistan. (2000). *On certain issues in application of legislation on compensation for moral harm (No. 7).* https://lex.uz/docs/-1449509

20. Republic of Uzbekistan. (2016). *On application of legislation relating to compensation for property damage caused by crime* (No. 26). https://lex.uz/docs/-3115385

21. Republic of Uzbekistan. (2021, August 21). *Law of the Republic of Uzbekistan "On Copyright and Related Rights" (Nos. 03/21/683/0375 & 03/21/709/0808)*. National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan.

22. *Romag Fasteners, Inc. v. Fossil Grp., Inc., No. 18-1233 (2020).*

23. Russian Federation. (1994). *Civil Code of the Russian Federation.* https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/

24. Russian Federation. (2022). *On the practice of applying norms on compensation for moral harm (Resolution No. 33).*

25. Shmakov, A. V., & Bulgakova, E. A. (2011). Ispolzovanie mekhanizma kompensatsii v grazhdanskom prave: ekonomicheskiy podkhod [*Use of the compensation mechanism in civil law: Economic approach*]. *Economic Space, 4*. https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-mehanizma-kompensatsii-v-grazhdanskom-prave-ekonomicheskiy-podhod

26. Smith, S. A. (2003). The structure of unjust enrichment law: Is restitution a right or a remedy? *Loyola of Los Angeles Law Review*, *36*(2), 1037–1062. https://digitalcommons.lmu.edu/llr/vol36/iss2/18

27. World Intellectual Property Organization [WIPO]. (2025). *World intellectual property indicators 2025*. https://doi.org/10.34667/tind.58959

28. Zimmermann, R. (1990). *The law of obligations: roman foundations of the civilian tradition*. Oxford University Press.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil 1-son**

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1.